

OILAVIY MUNOSABATLARDA NIZOLAR SHAKLLANISHI

Murodova Naima Axmadovna

O'zbekiston. JDPI, Pedagogika- psixologiya yo'nalishi magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6338657>

Annotatsiya: Oilaning ijtimoiy ahamiyatiga molik funksiyasini ta'minlanishida undagi ijtimoiy psixologik muhit, shaxslararo munosabatlar, subyektlarning kamolot darajasi belgilab beradi. ushbu maqolada oilaviy munosabatlarda nizolar shakllanishi haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: tarbiya o'chog'i, ijtimoiy ahamiyatiga molik, ijtimoiy psixologik muhit, shaxslararo munosabatlar, shaxsning shakllanishi, oila-nikoh munosabatlari, turmush madaniyati.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanishi, u tarbiya o'chog'i sifatida shaxsning shakllanishida muttasil ishtirok etadi. Oilaning ijtimoiy ahamiyatiga molik funksiyasini ta'minlanishida undagi ijtimoiy psixologik muhit, shaxslararo munosabatlar, subyektlarning kamolot darajasi belgilab beradi. Oila jamiyatning asosiy instituti hisoblanishi, u tarbiya o'chog'i sifatida shaxsning shakllanishida muttasil ishtirok etadi. Oilaning ijtimoiy ahamiyatiga molik funksiyasini ta'minlanishida undagi ijtimoiy psixologik muhit, shaxslararo munosabatlar, subyektlarning kamolot darajasi belgilab beradi. Oilada shaxslararo munosabatlarning o'ziga xos tomonlari uning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining muqaddas kitoblardagi bayoni va sharq mutafakkirlari asarlaridagi talqinni o'rganishimiz O'zbekiston hududida qadimdan oilaviy turmush madaniyati yuksak darajada rivojlanganligi, deya xulosa chiqarishga imkon beradi. O'zbek oilasining milliy-madaniy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olmay turib oila-nikoh munosabatlarini, oilaviy turmush faoliyatini, uning barqarorligi va farovonligini maqsadga muvofiq yo'sinda tashkil etish va amalga oshirish mumkin emas. Bu holat, uning asosiy vazifasi-farzand ko'rish orqali aholini qayta tiklash, avlodlar davomiyligini va yer yuzida insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta'minlash, muqaddas urf-odatlarimizni saqlash va uni avloddan- avlodga o'tkazishdek vazifani bajarish samarasini ham pasaytiradi. Oila barqarorligi va farovonligining asosi bo'lgan shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy asoslash tadqiqotimizning asosiy metodologik tuzilishi sifatida qabul qilingan bo'lib, uning atrofiga oila subyekti er-xotin shaxsi va faoliyatining barcha jihatlarini inobatga olish muhimdir. Oilaviy munosabatlar ularning milliy- psixologik va milliy madaniy bilimlari, ular shaxsi va faoliyatidagi milliy tipiklik va ijtimoiy tipiklik, o'zbek xalqiga xos o'zini o'zi anglashi va hokazolar semantizatsiyalandi.

Oilaviy ijtimoiylashuvning qadri va ahamiyati shundaki, uning ta'sirida, birinchidan, shaxs katta, mustaqil hayotga, jumladan, oilaviy hayotga tayyorlanadi, o'ziga yarasha sifat va fazilatlarni shakllantirib boradi, ikkinchidan, har tomonlama yetuk, barkamol, aqli, sog' va salomat shaxs bo'lib yetishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ya'ni, oila va uning sog'lom ma'naviy muhiti bolani jamiyatda yashashga, o'ziga o'xshash shaxslar bilan murosa qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, kasb-

hunarli bo'lish, muomalada ahloq-odob me'yorlariga bo'ysunishga o'rgatadi va psixologik jihatdan tayyorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, mustahkam va baxtli oila qurishga yigit-qizlarni ilk yoshlikdan tayyorlash, oila muhitida hamda barcha ta'lim bo'g'inlarida bu ishlarni bosqichma-bosqich izchil davom ettirish olib borayotgan siyosatimizning naqadar istiqbolga qaratilganligininining isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- 1.G'.B.SHoumarov, I.O.Haydarov "Oila psixologiyasi" o'quv qo'l. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun. 2008 y. "Sharq" nashriyoti. 294bet.
- 2.Oila psixologiyasi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun. //B.SHoumarov tahriri ostida. -T.: «SHarq», 2000. -272 b
- 3.E.G'oziyev, M. Xolmuhammedov, X. Ibrohimov. Psixologiya metodologiyasi.- T.: "Sharq",2002.-123 b
- 4.E.G'.G'oziyev. Umumiy psixologiya.-T.: "Universitet",2002 yil.